

## DAVLAT XIZMATLARI REGLAMENTI

### O'zbekiston Respublikasi transport vazirligi huzuridagi Fuqaro aviasiyasi agentligi

#### 1. Xizmat tavsifi (pasport ma'lumotlari)

##### 1.1. Xizmat turi

Havo kemalaridan texnik va uchish maqsadida foydalanish hujjatlarini tasdiqlash tartibi.

##### 1.2. Xizmat natijasi

Havo kemalaridan texnik va uchish maqsadida foydalanish hujjatni tasdiqlash (kelishish).

Havo kemalaridan texnik va uchish maqsadida foydalanish hujjatlarini tasdiqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Fuqaro aviasiyasi agentligi direktorning 2021 yil 23 noyabrdagi 129-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Havo kemalaridan texnik va uchish maqsadida foydalanish hujjatlarini tasdiqlash tartibi to'g'risidagi yo'riqnoma" talablariga muvofiq belgilangan.

##### 1.3. Xizmat ko'rsatuvchi organlar va blankalarni olish joylari

O'zbekiston Respublikasi transport vazirligi huzuridagi fuqaro aviasiyasi agentligi ("O'zaviasiya" agentligi), Agentlik sayti [www.uzcaa.uz](http://www.uzcaa.uz), E-mail: [caa@uzcaa.uz](mailto:caa@uzcaa.uz).

##### 1.4. Huquqiy asoslar

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 19 apreldagi 337-son O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Fuqaro aviasiyasi agentligi, Temir yo'llarda yuk va yo'lovchilar tashish xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasi va Yo'l-qurilish ishlari sifatini nazorat qilish inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" qarori.

##### 1.5. Xizmatni oluvchilar

Xizmatni oluvchi "O'zaviasiya" agentligiga havo kemalaridan texnik va uchish maqsadida foydalanish hujjatlarini tasdiqlash (kelishish) to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilgan jismoniy yoki yuridik shaxs bo'lishi mumkin.

##### 1.6. Rasmiy so'rov topshirish muddati

Belgilanmagan.

##### 1.7. Rasmiy so'rov topshirish muddatiga rioya qilmaslik oqibatlarini ko'rsatish

Qo'llanilmaydi.

## 1.8. Bajarilish muddati

Hujjatlarni qabul qilgan kundan boshlab o'ttiz ish kunidan oshmaydigan muddatda.

## 1.9. Tasdiq berish muddati

Tegishli qarorni qabul qilingan sanadan e'tiboran bir ish kunidan kechiktirmay.

## 2. Xizmat oluvchilarga ma'lumot berish

### 2.1. Ma'lumot tarkibi va hajmi

Murojaat qilgan har qanday shaxsga havo kemalaridan texnik va uchish maqsadida foydalanish hujjatlarini tasdiqlash tartibi haqidagi ma'lumotlarni taqdim etish, shu jumladan "O'zaviasiya" agentligining rasmiy veb-saytidan [www.uzcaa.uz](http://www.uzcaa.uz) zarur bo'lgan hujjatlarni yuklab olish imkoniyati kafolatlanadi.

### 2.2. Keng qamrovli ma'lumot

Havo kemalaridan texnik va uchish maqsadida foydalanish hujjatlarini tasdiqlash tartibi haqidagi ma'lumotlarni taqdim etish "O'zaviasiya" agentligining rasmiy veb-sayti [www.uzcaa.uz](http://www.uzcaa.uz) orqali amalga oshiriladi.

### 2.3. Rasmiy so'rov berish bo'yicha ma'lumot

Havo kemalaridan texnik va uchish maqsadida foydalanish hujjatlarini tasdiqlash tartibi haqidagi og'zaki ma'lumotlarni soat 9-00 dan 18-00 gacha 78-120-00-62 yoki 78-120-00-63 telefon raqamlar orqali taqdim etiladi.

Yozma ravishdagi rasmiy so'rovnomalarni qabul qilish, rasmiy so'rovnomalarni bo'yicha yozma hujjatlarni qabul qilish va berish soat 9-00 dan 18-00 gacha 71-254-14-82 sonli faks orqali Agentlik devonxonasida amalga oshiriladi.

Yozma ravishdagi so'rovnomalarni kecha-kunduz [technique@uzcaa.uz](mailto:technique@uzcaa.uz) yoki [caa@uzcaa.uz](mailto:caa@uzcaa.uz) elektron pochta orqali qabul qilinadi.

### 2.4. Xizmat ko'rsatish joyi haqida ma'lumot

Agentlik manzili: 100015, Toshkent sh., Nukus ko'chasi 73-b.  
Orientir – Mirobod dehqon bozori.

### 2.5. Hujjatlardagi foydalaniladigan blanklar (shakllar)

Havo kemalaridan texnik va uchish maqsadida foydalanish hujjatlarni tasdiqlash (kelishish) uchun arizaning shakli O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Fuqaro aviasiyasi agentligi direktorning 2021 yil 23 noyabrdagi 129-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Havo kemalaridan texnik va uchish maqsadida foydalanish hujjatlarini tasdiqlash tartibi to'g'risidagi yo'riqnomada" da belgilangan.

## 3. Xizmat ko'rsatish

### 3.1. Ish vaqti

Agentlik ish vaqti shanba, yakshanba va bayram kunlaridan tashqari, har kuni soat 9-00 dan 18-00 gacha.

### 3.2. Kutish shartlari

Qu'llanilmaydi.

## 4. Xizmat ko'rsatish tartibi

### 4.1. Zarur hujjatlar

Аризачи ҳаво кемаларидан техник ва учиш мақсадида фойдаланиш ҳужжатларни тасдиқлаш (келишиш) учун "Ўзавиация" агентлигига қуйидаги ҳужжатларни тақдим этади:

а) Ҳаво кемаларидан техник ва учиш мақсадида фойдаланиш ҳужжатларини тасдиқлаш тартиби тўғрисидаги Йўриқнома 2-иловасига мувофиқ шакл бўйича ариза;  
б) электрон ёки қоғоз шаклидаги ҳаво кемаларидан техник ва учиш мақсадида фойдаланиш ҳужжат;

в) ҳаво кемасини ишлаб чиқарувчи ҳужжат(лар), агар ушбу ҳужжат(лар) асосида ҳаво кемаларидан техник ва учиш мақсадида фойдаланиш ҳужжат ишлаб чиқилган ёхуд ўнга ўзгартириш ёки қўшимчалар киритилган бўлса.

Arizachi havo kemalaridan texnik va uchish maqsadida foydalanish hujjatlarni tasdiqlash (kelishish) uchun "O'zaviasiya" agentligiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

а) havo kemalaridan texnik va uchish maqsadida foydalanish hujjatlarini tasdiqlash tartibi to'g'risidagi Yo'riqnama 2-ilovasiga muvofiq shakl bo'yicha ariza;

б) elektron yoki qog'oz shaklidagi havo kemalaridan texnik va uchish maqsadida foydalanish hujjat;

в) havo kemasini ishlab chiqaruvchi hujjat(lar), agar ushbu hujjat(lar) asosida havo kemalaridan texnik va uchish maqsadida foydalanish hujjat ishlab chiqilgan yoxud o'nga o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritilgan bo'lsa.

### 4.2. Xizmat to'lovlari

Xizmat bepul.

### 4.3. Davlat xizmatlarini ko'rsatish bosqichlari

Havo kemalaridan texnik va uchish maqsadida foydalanish hujjatlarini tasdiqlash tartibi quyidagi bosqichlardan iborat:

1. "O'zaviasiya" agentligi hujjatlarni qabul qilgan kundan boshlab o'ttiz ish kunidan oshmaydigan muddatda arizani qo'rib chiqadi, havo kemalaridan texnik va uchish maqsadida foydalanish hujjatni tasdiqlash (kelishish) yoki uni tasdiqlashni (kelishishni) rad etish to'g'risida qarorni qabul qiladi.

2. Arizani ko'rib chiqish jarayonida taqdim etilgan hujjat belgilangan Xalqaro fuqaro aviasiyasi tashkilotining (IKAO) xalqaro standartlari va tavsiya etilgan amaliyot talablariga, shuningdek, havo kemani ishlab chiqaruvchining Aviasiya ma'muriyati, havo kemani ro'yxatga olgan Aviasiya ma'muriyati va havo kemani ishlab chiqaruvchi talablarga muvofiqligi bo'yicha ekspertiza o'tkaziladi.

3. O'tkazilgan ekspertiza natijalariga ko'ra, "O'zaviasiya" agentligining mutaxassisi havo kemalaridan texnik va uchish maqsadida foydalanish hujjatni tasdiqlash (kelishish) yoki uni tasdiqlashni (kelishishni) rad etish imkoniyati to'g'risidagi xulosani rasmiylashtiradi.

4. "O'zaviasiya" agentligi tegishli qarorni qabul qilingan sanadan e'tiboran bir ish kunidan kechiktirmay arizachiga tasdiqlangan (kelishilgan) havo kemalaridan texnik va uchish maqsadida foydalanish hujjatni beradi yoki uni tasdiqlash (kelishish) rad etilganligi haqida yozma shaklda xabardor qiladi.

#### **4.4. Davlat xizmatlarini ko'rsatishni ichki idoraviy tartibi**

“O'zaviasiya” agentlik devonxonasida arizani qabul qilish → arizani “O'zaviasiya” agentlik direktoriga viza qo'yilishi uchun berish → arizani “O'zaviasiya” agentligining ko'rib chiqilayotgan hujjatning toifasi vakolatiga kiradigan tegishli bo'limiga berish → havo kemalaridan texnik va uchish maqsadida foydalanish hujjatlarini tasdiqlash tartibi to'g'risidagi Yo'riqnoma asosida arizani ko'rib chiqish → “O'zaviasiya” agentligi arizachiga tasdiqlangan (kelishilgan) havo kemalaridan texnik va uchish maqsadida foydalanish hujjatni beradi yoki uni tasdiqlash (kelishish) rad etilganligi haqida yozma shaklda xabardor qiladi.

#### **4.5. Rad etish asoslari**

Havo kemalaridan texnik va uchish maqsadida foydalanish hujjatni tasdiqlash (kelishish) rad etish uchun asoslari quyidagi hollarda bo'lishi mumkin:

- taqdim etilgan hujjatni ekspertizadan o'tkazish uchun zarur bo'lgan hujjatlarning arizachi tomonidan to'liq bo'lmagan hajmda taqdim etilganligi;
- arizachi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda noto'g'ri yoki ishonchsiz ma'lumotlar mavjudligi;
- Havo kemalaridan texnik va uchish maqsadida foydalanish hujjatlarini tasdiqlash tartibi to'g'risidagi Yo'riqnomaning 14-bandi talablariga muvofiq emasligi;
- rad etilganligi haqidagi xabarnomada ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etmasdan yoki rad etilganligi haqidagi xabarnomada ko'rsatilgan muddat o'tgandan keyin hujjatlar takroran taqdim etilganligi;
- asoslantirilgan salbiy xulosa mavjudligi.

### **5. Sifatini ta'minlash**

#### **5.1. Sifat turlari**

Qullanilmaydi.

Havo kemalaridan texnik va uchish maqsadida foydalanish hujjatlarini tasdiqlash xizmati keng qamrovdagi xizmat oluvchilarning keng doirasi uchun ommaviy hisoblanmaydi.

#### **5.2. Sifatsiz xizmatdan sababli shikoyat arizasini berish**

Xizmat oluvchi havo kemalaridan texnik va uchish maqsadida foydalanish hujjatni tasdiqlash (kelishish) rad etilganligi, shuningdek “O'zaviasiya” agentligi mansabdor shaxsining harakati (harakatsizligi) ustidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda qo'yidagilar orqali shikoyat qilish mumkin:

- shaxsiy murojat;
- yozma ravishda (xat);
- elektron pochta.

**Havo kemalaridan texnik va uchish maqsadida foydalanish  
hujjatlarini tasdiqlash  
Davlat xizmatini taqdim qilish sxemasi**

